

nazar) buxgalteriya hisobi bo'yicha alohida standartlarni bo'lishini ko'zda tutmasdan, balki yagona standartlar tizimini yaratishimiz kerak, qaysiki undagi qoidalar barcha turdagi banklarga bir xil mazmunda qo'llanilishiga erishishimiz kerak;

- moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasini xalqaro standartlarga muvofiq erkin ravishda belgilash tartibiga o'tish imkoniyatlari yaratilishi kerak;

- tijorat banklarida hisob siyosatini mukammallashtirish, uni moliyaviy hisobot tamoyillariga to'liq rioya qilgan holda tuzilishi hamda chinakkam hisob loyihasi bo'lishi, shuningdek tijorat banklarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishchi schetlar rejasini ishlab chiqishga erishish va boshqa bir qator ishlarni amalga oshirish lozim, deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyev, PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.

2. IFRS Foundation web sites

3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T: TDIU, 2019. – 227 b.

4. Muzrapova Sh, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi, Tafakkur manzili, 2020.

5. Ergasheva Sh.T., Uchebnik «Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti» –T: TGEU, 2020 g.- 307 str.

6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standard). IFRS Foundation 2022

7. The manual of Accounting – IFRS 2019. The Global Accounting Consulting Services team of PricewaterhouseCoopers LLP 2019.

8. www.mf.uz

LOYIHALARNI BANK KREDITLARI VOSITASIDA MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Raimov Mirzohid Shuxrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Loyiha boshqaruvi mutaxassisligi tinglovchisi

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va keng joriy etish nihoyatda muhim o'rin tutmoqda. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ularni amalga oshirishda moliyaviy resurslarni keng jalb etish loyiha samaradorligining asosiy qismlaridan biridir. Bu loyihalar, iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyani oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning moliyalashtirilishi uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, bank kreditlari loyihalarini moliyalashtirishda eng asosiy manbalardan biri hisoblanib, tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda yordam beradi hamda o'z loyihalarini samarali tashkil etish va uzliksizligini ta'minlashda

muhim imkoniyatlar yaratadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, investitsiya loyihalarini kreditlash tijorat banklarining jahon moliya bozoridagi o‘z strategiyasini amalga oshirishda va u orqali xalqaro hamkorlik va tajribalarni rivojlantirishda eng zaruriy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng islohatlar natijasi o‘laroq tadbirkorlik sub’yektlarining loyihalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar mablag‘larini faol jalb etish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur chora-tadbirlar doirasida iqtisodiy jihatdan asoslantirilgan investitsiya loyihalarini ularning moliyalashtirish manbalari aniq belgilangan holda samarali amalga oshirilishini ta’minlaydigan, shuningdek, ularni amalga oshirish bo‘yicha mablag‘larning nooqilona sarflanishini istisno etadigan, mamlakatni rivojlantirish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning sifat jihatdan yangi tartibi joriy etildi. Yaqin o‘rta muddatli istiqbolda korxonalarni modernizatsiyalash bo‘yicha kutilayotgan ehtiyojlar hamda O‘zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, yaqin yillarda bank tizimi jami kredit portfelida tadbirkorlik sub’yektlarining loyihalariga ajratilayotgan kreditlarning yanada o‘sishini kutish mumkin. Bu esa, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashda bank risklarini boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi va dolzarbligini oshiradi. Tadbirkorlik sub’yektlarining yangi loyihalarini moliyalashtirish bankning yuqori riskli faoliyati hisoblanib, bu turdagi risklarni boshqarish murakkab va ko‘p pog‘onali jarayon hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, investitsion loyihalarni moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi tijorat banklari riskni boshqarish maqsadida risk-menejment jarayoniga ko‘maklashuvchi o‘ziga xos modellarni shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda, tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda eksportbop va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilayotgan loyihalar hisobiga mamlakatimizda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik, chorvachilik, tikuvchilik hamda o‘rta va yirik korxonalar ishga tushmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Demak, biz yangi loyihalarni moliyalashtirish orqali nafaqat tadbirkorlik sub’yektlarini balki, aholining bandligi va ishsizlik darajasini pasaytirishga hamda aholining farovon yashashiga erishishimiz mumkin.

O‘z navbatida, bank tizimida olib borilayotgan samarali islohatlar, jumladan, kreditlash tartib-taomillarini soddalashtirish, banklarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali tadbirkorlik sub’yektlariga ajratilayotgan kredit qo‘yilmalarining hajmi ham yildan-yilga o‘sib bormoqda.

1-jadval

**2022-2023 yillarda yuridik shaxslarning tijorat banklaridagi kredit
qo'yilmalari va ularga ajratilgan kreditlar (tarmoqlar kesimida)⁵⁹**

mlrd. so'm

№	Tarmoqlar	2023 yil 1 yanvar holatiga		2024 yil 1 yanvar holatiga		Farqi (+/-)	
		Bank kredit qo'yilmasi	2022 yilda ajratilgan kredit	Bank kredit qo'yilmasi	2023 yilda ajratilgan kredit	Bank kredit qo'yilmasi	Ajratilgan kredit
1	Sanoat	126 646,6	60 198,7	140 152,0	66 913,9	13 505,4	6 715,2
2	Qishloq xo'jaligi	42 096,4	15 963,9	47 255,0	14 602,5	5 158,6	- 1 361,4
3	Qurilish	10 399,7	7 828,5	12 274,7	6 826,8	1 875,0	- 1 001,7
4	Savdo va umumiy ovqatlanish	28 910,6	30 303,7	32 515,5	30 511,1	3 604,9	207,4
5	Transport va kommunikatsiya	29 672,6	7 217,8	34 341,9	9 594,3	4 669,3	2 376,5
6	Boshqalar	51 374,3	16 325,5	56 245,1	22 718,1	4 870,8	6 392,6
	Jami:	289 100,2	137 838,1	322 784,2	151 166,7	33 684,0	13 328,6

Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarida yuridik shaxslarning kredit qo'yilmalari 2023 yil 1 yanvar holatida 289,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024 yil 1 yanvar holatida 33,7 trln. so'mga o'sishga erishib 322,8 trln. so'mni tashkil etgan. Shuningdek, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdori o'tgan 2022 yilga nisbatan 13,3 trln. so'mga ortib 2023 yilda 151,2 trln. so'mni tashkil etgan va bu esa tadbirkorlik subyektlarini yanda qo'llab-quvvatlanganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur sohalaridagi islohatlarni yangi bosqichga ko'tarish korxonalarni modernizatsiyalash va texnik yangilashni jadallashtirish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash orqali kreditlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi.

NON-PERFORMING LOAN ESSENCE IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN

Rustamov Jonibek Ravshanbek ugli

*PhD candidate Banking and Finance academy
of the Republic of Uzbekistan*

Teacher British Management university in Tashkent

At the field of financial economics, non-performing loans (NPLs) at commercial banks are an important subject of study. Non-performing loans, which are defined by late or defaulting payments, have arisen as a key problem in the financial industry owing to the possible consequences for both individual

⁵⁹ www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.